Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
60110700 - O‘zbek tili va adabiyoti
3-bosqich yo‘nalishi talabalariga 5-semestr uchun
« O‘zbek adabiyoti III» fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
I.Madatov
2025 yil 14-oktabr

Mavzu raqami	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi
1	Maqsud Shayxzodaning XX asr o'zbek adabiyotidagi o'rni (O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ijodining o'ziga xosligi).	Maqsud Shayxzodaning hayot yo'li (Hayotining Gruziya, Ozarbayjon davlatlari bilan bog'liqligi, ta'lim olishi, ijodiy faoliyatining boshlanishi).	Maqsud Shayxzodaning she'riyati (She'riy to'plamlari, she'riyati mavzusi va mundarijasi).	Maqsud Shayxzodaning ijodida badiiy tarjimalar (Tarjima asarlari, A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, V.V.Mayakovskiy, N.Ganjaviy, Fuzuliy, Shekspir, Bayron, Gyote va boshqalarning asarlari tarjimasi).	Maqsud Shayxzod ijodining o'rganilishi, manbalar (O.Sharafiddinov, N.Karimov, I.G'ofurov, M.Zokirov kabi adabiyotshunoslar talqinida).
1	Usmon Nosir XX asrning 30-yillari she'riyatining gultoji sifatida (Shoirning o'zbek adabiyotidagi o'rni, jo'shqin ijodi).	Usmon Nosirning hayot yo'li (Shoirning fojiali taqdiri, adabiyotga qadam qo'yishi, ijodining o'ziga xosligi).	Usmon Nosir she'riyati (She'riy to'plamlari, she'riyati mavzusi va mundarijasi, she'rlarida vatan madhi).	Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida davr va shxs talqini (Asarda tarixiy haqiqatning yoritilishi, Ulug'bek Mirzo, Abdulativ timsollari).	Usmon Nosir hayoti va ijodining o'rganilishi, manbalar (Shoirning fojiali taqdiri, tanqidlar, O.Sharafiddinov, N.Karimov, I.G'ofurov, M.Zokirov kabi adabiyotshunoslar talqinida).
2	Mirtemir Tursunov yangi o'zbek she'riyatining tamal toshini qo'ygan shoir (Shoirning XX asr o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi, she'riyatga sochma janrini olib kirishi).	Mirtemir she'riyatining o'ziga xosligi (She'riy to'plamlari, she'riyatining eng yuksak namunalari).	Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" asari poetikasi (Asarning yaratilishi, mavzu mundarijasi, inson ruhiyatining tasvirlanishi).	Mirtemirning qo'shiqchilik sohasiga qo'shgan hissasi (Qo'shiqlarida A.Navoiy an'analarining davomiyligi, qo'shiqlarining jo'shqinligi).	Mirtemir ijodining o'rganilishi, tanqidlar, mulohazalar, manbalar (O.Sharafiddinov, N.Karimov, I.G'ofurov, M.Zokirov kabi adabiyotshunoslar talqinida).
2	Mirtemirning hayot yo'li (Shoir hayoti davrning murakkab bir tuzumiga to'g'ri kelishi, boshidan kechirganlari, adabiyotga kirib kelishi, ijodiy faoliyatining boshlanishi).	Mirtemir she'rlarida vatanparvarlik motivi (She'rlarining mavzusi jihatdan turlari, vatanparvarlik, insoniylik fazilatlarining ifodalanishi).	Mirtemirning dramaturgiya sohasidagi ilk tajriba asari ("Birinchi prezident" dramasining yaratilishi, dramaning taqdiri).	Mirtemir tarjimalarida o'ziga xoslik ((Tarjima asarlari, A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, N.A.Nekrasov, M.Gorkiy, Abay, Berdaq, Nozim Hikmat va boshqalarning asarlari, "Manas", "Qirq qiz" eposlarining tarjimalari.).	Mirtemir - yalangto'sh, mehnatkash, qalam dehqoni (Abulla Oripovning shoir xotirasiga bag'ishlab yozgan she'rida uning shaxsiyati, ijodiga bergan ta'rifi).
3	Said Ahmad - prozaning shoiri (Adib ijodining o'ziga xosligi, proza janrining o'rni, hikoyalarining she'rdek o'qilishi).	Said Ahmadning hayot yo'li (Adibning o'nib-o'sishi, bolaligi, buyuk ijodkorlar bilan munosabati).	Said Ahmadning "lirik nasr" sohasidagi jiddiy yutuqlari ("Tumalar", "Ko'klam chechaklari", "Xazina", "Iqbol chiziqlari" hikoyalarida lirizm chuqurligi bilan farqlanishi).	"Ufq" romanining Said Ahmad ijodidagi o'rni (Asarning badiiyati, qahramonlarining xarakter xususiyati, muvaffaqiyati).	"Yo'qotganlarim va topganlarim" asarining badiiy qimmati (Asarning xotiralardan iboratligi, asarda Saida Zunnunova, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Oybek va boshqa ijodkorlar timsolining gavdalanishi).
3	Said Ahmad jurnalist-ocherkchi (Adibning "Qizil O'zbekiston" gazetasi, "Mushtum", "Sharq yuluzi" jurnallari va O'zbekiston radio komitetidagi faoliyati).	Said Ahmadning adabiyotga ilk qadami ("Tortiq"hikoyalar to'plami, A.Qahhorning tanqidiy qarashlari, "Tepki" hikoyasining yaratilishi).	Said Ahmad asarlarida satira va yumorning ifodalanishi (Said Ahmadning hajviy asarlari, ularda manmanlik, ig'vogarlik, ko'zbo'yamachilik kabi illatlarning fosh etilishi	"Jimjitlik" romanining g'oyaviy falasafasi (Asarda turg'unlik illatlarining ildiz otishiga yo'l ochgan jiddiy sabablarning yoritilishi).	Said Ahmad ijodiga bir nazar (U.Normatovning "Said Ahmad" kitobi talqinida).
4	Odil Yoqubov XX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi	Odil Yoqubov ijodi yo'li qanday bosqichlarga bo'linadi? (Adib ijodining uch bosqichi, 1-bosqich, 50-yillarda 2-bosqich 60-yillarda, 3-bosqich, 70-80-yillari yaratilgan asarlar bilan belgilanadi)	. Odil Yoqubovning zamonaviy mavzudagi qissa va romanlari ("Ota izidan", "Larza", "Bir fe'leton qissasi", "Matluba", "Billur qandillar" qissalari, "Er boshiga ish tushsa", "Diyonat", "Oqqushlar oppoq qushlar", "Adolat manzili", "Osiy banda" romanlari).	Odil Yoqubov "Bir koshona sirlari" pe'sasi bilan o'zbek dramaturgiyasida qanday tamoyillar rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan (Zamondoshlarining yorqin xarakterlarini keskin to'qnashuvlarda, ta'sirchan sahnada tasvirlash tamoyillari).	Odil Yoqubov ijodining o'rganilishi. (Odil Yoqubov ijodi yuzasidan e'lon qilingan maqola va asarlar, O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, N.Karimov, A.Rasulov va boshqalar talqinida).
4	Odil Yoqubovning hayoti va ijodiy faoliyatining boshlanishi (Adib biografiyasi, jurnalistik faoliyati, ilk ijodining boshlanishi).	Odil Yoqubov ijodining dastlabki jiddiy muvaffaqiyati sifatida e'tirof etilgan asarlari ("Muqaddas" qissasi, asarga Ch.Aytmatovning bergan yuksak bahosi, "Qanot juft bo'ladi", "Diyonat"asarlari).	"Adolat manzili" romani orqali Odil Yoqubovning o'zbek adabiyotiga kiritgan yangiliklari (Asarning yaratilishi, janr xususiyatlari, "jinoyatsiz detektiv" janrining kiritilishi).	"Ulug'bek xazinasi" romanida davr va shaxs talqini (Asarning yaratilish tarixi, Odil Yoqubov ijodini yetuklik darajasiga ko'targan asarlardan biri ekanligi)	Odil Yoqubov ijodida birinchi tarixiy-polifonik romanning yaratilishi ("Ko'hna dunyo" - birinchi o'zbek adabiyotida yaratilgan polifonik asar, asarning teran falsafiy mazmuni,original shakli, zamonaviyligi, gumanistik mohiyatini chuqurlashtirishi).
5	Pirimqul Qodirov -yozuvchi, tarjimon, adabiy tanqidchi va adabiyotshunos olim (P.Qodirov hikoyanavis, romannavis, tarjimon va olim sifatidagi faoliyati).	Pirimqul Qodirovning ijodi qanday asarlar bilan boshlanadi? ("Studentlar" hikoyasi, A.Qahhorning tanqidiy qarashlari, "Uch ildiz" romani).	"Qora ko'zlar" asari yozuvchi ijodida olg'a tashlangan qadam edi (P.Qodirovning asarda erishgan yutuqlari, asarda 60-yillar boshidagi qishloq hayoti manzaralarini, turmush qiyinchiliklarini, ziddiyatlarini yorqin tasvirlab berishi).	Pirimqul Qodirov ijodida tarixiy romanlarning o'rni (Pirimqul Qodirov ijodining gultoji bo'lgan romanlari "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" asarlarining yaratilishi,badiiy qimmati).	Pirimqul Qodirovning o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosli rivojiga qo'shgan hissasi ("Oilamiz" nomli ocherki, "Xalq tili va realistik proza", "Til va dil", "Til va el" nomli ommabop ishlari).
5	Pirimqul Qodirovning hayot yo'li (Biografiyasi, ijodiy va ilmiy faoliyati haqida umumiy ma'lumot).	Pirimqul Qodirovning "Uch ildiz" romanini adabiyotshunoslar qanday kutib oldi? (A.Qahhor e'tirofi, XX asrning 50- yillari o'rtalaridagi muhim tarixiy jarayonlarning izidan borib yozilgan asar sifatida)	Pirimqul Qodirov "Olmos kamar" asari bilano'zbek adabiyotida mavzu talqiniga qanday yangiliklar olib kirdi? (Asarning urbanistik (shahar muammolarini yorituvchi) ilk o'zbek romani sifatida yaratilishi).	Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima (Adibning tarixiy voqeliklarga bo'lgan e'tibori, qiziqishlari va ularni badiiy asarlar asosida ifodalashi, "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi" romanlari tahlili).	Pirimqul Qodirov ijodining o'rganilishi, manbalar (O.Sharofiddinov "Ulg'ayish"nomli maqolasi, P.Shermuhamedovning "Pirimqul Qodirov" nomli kitobi talqinida).
6	O'lmas Umarbekov - XX asr o'zbek adabiyotining yetuk vakili (O'lmas Umarbekovning hayoti, ijodiy faoliyati, o'zbek adabiyotida tutgan o'rni).	O'lmas Umarbekov hikoyalarida "oddiy odamlar" timsolining yaratilishi (Hikoyalari, mavzusi, asosiy g'oyasi, hikoyalarida "oddiy odamlar" timsoli).	O'lmas Umarbekov -qissanavis (Adibning qissa janrida yaratgan asarlari, mavzu doirasi, timsollari haqida).	O'lmas Umarbekov romanlarida davr va shaxs talqini (Adib romanlari, "Fotima va Zuhra", "Odam bo'lish qiyin"asarlarida davr voqeliklarining timsollar taqdiri orqali yoritib berilishi).	Adabiyotshunoslikda O'lmas Umarbekov ijodining o'rganilishi, manbalar (O.Sharafiddinov, N.Karimov, I.G'ofurov va boshqalarning tadqiqi)
6	Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti namoyondalari (Bu davr adabiyotining 1991-yildan boshlanishi, Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Oripov, E.Vohidov Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, Tog'ay Murod, Tohir Malik va b.qlar ijodining yangi davri va Shavkat Rahmon, Nazar Eshonqul va boshqalar).	Shukur Xolmirzayevning ijodida an'ana va novatorlik (Adibning hayoti, ijodining boshlanishi, o'ziga xosligi, XX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini tashkil etishi).	Shukur Xolmirzayevning qaysi hikoyalari o'zbek adabiyotiga katta muvaffaqiyatlar olib keldi? (Mustaqillik yillaridagi ijodining yetuklik bosqichi, "Bulut to'sgan oy", "Bandi burgut", "Ozodlik" nomli hikoyalari, "Yozuvchi" nomli xotira-hikoyasi).	Shukur Xolmirzayevning "Bulut to'sgan oy" hikoyasida mustaqillik davridagi ayollar timsoli (Istiqlol yillari boshidagi iqtisodiy qiyinchiliklarning ayollar boshiga og'ir uqubatlarni solayotganining jonli tasvirlanishi, hikoyadagi Gulsara timsoli).	Shukur Xolmirzayevning adabiy tanqidchilar nishonidagi asarlari (Adib ijodidagi tanqidga uchragan asarlari, "To'lqinlar" povesti, "So'nggi bekat", "Qil ko'prik" romanlari adabiy tanqidchilar nigohida).
7	Tog'ay Murodning yangi o'zbek adabiyoti takomilida tutgan o'rni (Adibning hayot yo'li, ijodining o'ziga xosligi, adabiyotga olib kirgan yangiliklari).	Tog'ay Murodni iste'dodli yozuvchi sifatida tanitgan dastlabki yirik asari ("Yulduzlar mangu yonadi" qissasining yaratilishi, asarning asosiy g'oyasi, timsollari).	"Otamdan qolgan dalalar" romanidagi voqealar qaysi qahramon taqdiri, qismati bilan bog'liq (T.Murodning istiqlol yillaridagi ilk yirik yutug'i, roman voqealarining Dehqonqul obrazi orqali ifodalanishi).	Tog'ay Murodning yuz yildan ortiq tarixni ifodalagan asari ("Otamdan qolgan dalalar" asarining yaratilishi, asar g'oyasi, mavzu-mundarijasi).	Tog'ay Murodning o'ziga xos qirralarini izohlang (Adib asarlarining nasri-sa'jga qurilishi, hech kimnikiga o'xshamaydigan betakror musiqiy, she'riy ritm, hissiy ohangga egaligi).
7	Otkir Hoshimovning hayot yo'li (Adibning biografiyasi, ijodiy faoliyatining boshlanishi).	O'tkir Hoshimovning qaysi asarlari yoshlar hayotidan olib yozilgan? ("Gunafsha", "Shamol esaveradi" va boshqa asarlarida yoshlar mavzusi).	O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" qissasi adabiyotshunosilar nigohida (Yozuvchining ilk qissasi, asarning yaratilishi, mavzusi, Abdulla Qahhorning e'tirofi, O.Sharafiddinovning fikr-mulohazalari).	O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar"asarida oshkoralik va tanqidiy ruhning ifodalanishi (Asarda XX asr 80-yillar hayotining tasvirlanishi, romanning asosiy g'oyasi, timsollari).	O'tkir Hoshimovning milliy istiqlol yillaridagi asarlari (Asarlarida tanqidiy realizm unsurlarining o'sib borishi, "Ko'kyo'tal", "Telpak", "Butulka hoji" nomli hajviy asarlari, "G'aroyib sayohat"nomli satirik hikoyasi).
8	Erkin Vohidovning XX asr she'riyatiga kiritgan yangiliklari (Shoirning hayot yo'li, ijodining boshlanishi, uning o`ziga xos iste`dodi, shoir sifatida o`zbek she`riyatiga kiritgan yangiliklari),	Erkin Vohidovning badiiy tarjimalari (Abu Ali ibn Sino, Hofiz Sheroziy, Bedil, Fridrix Shiller, I.Gyote, A.Pushkin, S.Yesenin, A.Blok, M.Svetlov, A.Tvardovskiy, Silva Kaputikyan, A. Malishko, Rasul Hamzatov, I.Gyote, Sergey Yesenin asarlarining tarjimasi).	Erkin Vohidov poemalari («Buvuk hayot tongi», «Orzu chashmasi», «Nido», «Palatkada yozilgan doston», «Qtyosh maskani», «Charog`bon», «Baxmal», «Ruhlar isyoni» dostonlarining yaratilishi, mavzu, mundarijasi).	Erkin Vohidovning 70-80-yillardagi she`riyatida ijtimoiy hodisa va ijtimoiy motivlar (Shoirning «Zangori shu`lalar», «Biz ishlayapmiz», «Manfaat falsafasi», «Unutish qo`shig`i», «Temirtan daholar» kabi she`rlarida o`zbek xalqining tarixiy o`tmishi, milliy xususiyatlari, milliy qadriyatlarini yorqin aks ettirishi).	Erkin Vohidov ijodining o`rganilishi (Shoir ijodiga bag'ishlangan O.Sharafiddinov, U.Normatov, R.Vohidov, R.Inog'omovlarning tadqiqotlari).
8	Abdulla Oripov XX asr o`zbek she`riyatining zabardast vakili (Abdulla Oripovning hayot yo'li, ilk she'rlari, lirik turdagi barakali ijodi, doston va dramalari, mustaqillik yillarida yaratgan asarlari).	Abdulla Oripov lirikasining janriy tarkibi va o`ziga xos xususiyatlari (Shoirning XX asr o`zbek she`riyatidagi yetakchi shakl-barmoq vazni bilan birga aruzdagi g`azal, masnaviy, sarbast janrlaridagi she'rlari, "Ko`zlarim yo`lingda», «Onajon», «Ruhim», "O`zbekiston», «Hayrat» «Yurtim shamoli», «Yuzma-yuz», «Najot qal`asi», «Yillar armoni», «Ishonch ko`priklari», «Sen bahorni sog`inmadingmu» va boshqa she'riy to`plamlari).	Abdulla Oripovning «Sohibqiron» she`riy dramasi mazmun-mundarijasi nimalardan iborat? (Dramaning asosiy g'oyasi, Amir Temur obrazi, bu obrazning yaratilgan boshqa asarlardan farqli va mushtarak jihatlari	Abdulla Oripov – dostonnavis. (Abdulla Oripovning dostonnavislik mahorati, «Jannatga yo`l», «Hakim va ajal», «Ranjkom» dostonlari haqida .	Abdulla Oripov ijodining adabiyotshunoslikda o`rganilishi (Abdulla Oripovga bag`ishlangan O.Sharafiddinov, I.G'ofurov, S.Mamajonov, U. Normatov, N. Karimov, B. Qosimov, N.Rahimjonov, I.Haqqulov, B.Akramov, B.Norboyev, M.Safarov, O.Tog`ayev tadqiqotlari, Matyoqub Qo`shjonov, Suvon Meliyevlarning «Abdulla Oripov» nomli adabiy portreti).

9	Asqad Muxtor XX asr o'zbek adabiyotining taniqli vakili (Adibning falsafiy lirikasi, epik turdagi asarlari bilan adabiyotimizda ham shoir, ham nosir sifatidagi ijodi).	Asqad Muxtor she'riyati (Shoir lirikasining xarakterli xususiyatlari, "Hamshaharlar", "Rahmat, mehribonlarim", "99 miniatyura", "She`rlar" , "Quyosh belanchagi", "Sizga aytar so`zim", "Sirli nido" kabi she`riy to`plamlari).	Asqad Muxtor romanlarining yaratilishi, mavzu-mundarijasi ("Opa-singillar" romani zamonasozlik xususida, "Tug`ilish", "Davr mening taqdirimda", "Chinor" romanlari).	Asqad Muxtorning qissanavislik mahorati qaysi asarlarda namoyon bo'ldi? (Prozadagi birinchi asari "Daryolar tutashgan joyda" qissasi, "Buxoroning jin ko`chalari", "Jar yoqasida chaqmoq"qissalari).	Asqad Muxtor ijodining adabiyotshunoslik ilmida tadqiq etilish (O.Tog`aevning "Asqad Muxtor" nomli adabiy portreti, T. Hamidning "Qo'shiqlar qanotida" nomli tadqiqoti, S.Mirvaliyev, O.Sharafiddinovlarning maqolalari).
9	Shuhrat - XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan adib sifatida (Shuhratning hayoti, ijodga bo'lgan qiziqishi, yaratgan badiiy asarlarining mavzusi va janriy xususiyatlari).	Shuhratning bolalar adabiyotidagi samarali ijod namunalari (Bolalar adabiyotiga xos janrlarda yaratilgan asarlari - she'rlar, qo'shiqlar, ertak, masallari).	Shuhratning liro-epik va ramatik asarlarida xalqona pafos ifodasi (Adib ijodida xalq dardini ifodalagan, xalqona pafosga ega bo'lgan "Mardlik afsonasi", "Raymonda", "Siraryo", "Bobo va nabira", "Gulursin", "Farzand", "Jamila" kabi ballada va dostonlarining mazmun-mohiyati).	Shuhrat romanlarida badiiy g'oya va tasvir haqqoniyligi (Adibning nasriy asarlari, qissa va romanlari, "Oltin zanglamas", "Shinelli yillar", "Jannat qidirganlar", "Mashrab" romanlarining badiiy g'oyasi va voqelikning haqqoniy tasvirlanishi).	Shuhrat ijodining o'rganilishi (U.Normatov, O.Tog'ayev, N.Karimov, O.Ikromov, Q.Qahramonov va boshqa adabiyotshunoslar talqini).
10	Tohir Malik - Istiqlol davri o'zbek adabiyotining yorqin vakili (Adibning hayot yo'li, ilk ijodiy namunalari).	Tohir Malikning "Shaytanat" romani sintetik realizm yo'nalishining yorqin namunasi (Sintetik realizm tushunhasi, Asarda katta tarixiy davr va undagi murakkab muammolarning asar qahramonlari taqdiri vositasida tasvirlanishi).	Tohir Malik ijodida detektiv romanlarning yetakchilik qilishi (Detektiv roman tushunchasi, adib ijodida bu yo'nalishning ustuvorlik qilishi, "Tirilgan murdalar", "Shaytanat", "Alvido bolalik"asarlari).	Tohir Malik asarlarining ijtimoiy-falsafiy xarakteri (Yozuvchi asarlarida ijtimoiy hayotdagi jiddiy muammolarning falsafiy xarakterda yoritib berilishi).	Tohir Malik ijodiy faoliyatiga adabiyotshunoslarning munosabati (Adib asarlariga berilgan yuksak baholar, asarlarining badiiy qiymati, o'ziga xosligi bo'yicha ijobiy fikr-mulohazalar).
10	Rauf Parfi ijodining o'ziga xosligi (XX asrning 60-yillarida o'zbek adabiyotiga kirib kelishi, she'riyati, sonetlari, badiiy tarjima va dostonlarining go'yaviy badiiy talqini).	Halima Xudoyberdiyevaning XX asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotiga kirib kelishi (Shoiraning hayot yo'li va ijodiy faoliyatining boshlanishi, tengdosh ijodkorlari qatoridan o'rin egallashi).	Rauf Parfining badiiy tarjimalari (Bayron, Nozim Hikmat, Karlo Koladze, Mahmud Xodiy, A.Dyuma kabi yozuvchilarning asarlari tarjimoni sifatida).	Halima Xudoyberdiyeva she'riyati (Shoira lirikasining janriy tarkibi va o`ziga xos xususiyatlari, she'riy to'plamlari).	"Adashgan ruh" dostonining o'zbek adabiyotida yangilik sifatida yaratilishi (Rauf Parfi ijodidagi eng yirik asari, mavzu doirasi, dostondagi o'zgacha ifoda yo'sini, betakror shakli, tugallanmaganligi).
11	Omon Muxtor - Yozuvchi, shoir, dramaturg (Adibning hayoti, qiziqishlari, ilk ijodi, ijodining janr xususiyatlari).	Omon Matjon she'riyati (Shoirning „Karvon qo`ng`irog`i", „Quyosh soati", „Yonayotgan daraxt", „Daraxtlar va giyohlar", „O`rtamizda birgina olma", „Qush yo`li", „Iymon yog`dusi", „Xoja Ahror ziyoratlari" va boshqa she`riy asarlarida voqelikni badiiy ifodalash, hodisadan favqulodda falsafiy xulosalar chiqarish, o`zi tug`ilib o`sgan muhit koloritiga mos ifodalar topish tamoyili ustuvorligi).	Omon Muxtor hikoya va qissalarining mazmun-mohiyati („Nigoh", „Qushlar va tushlar", „Shaharlik kelinchak", „Vazifa", „O`lmagan jon" to'plamlarining yaratilishi, asarlarida xilma-xil mavzularning yoritishi, asar qahramonlari oddiy kasb-hunar kishilari.	Omon Matjon she'rlarida Xorazm xalq afsonalarining o`ziga xos badiiy talqini (Shoirning „Haqqush qichqirig`i" (40 afsona, 1979) she`rlar kitobi tahlili)	Omon Matjonning o`zbek xalqining Xorazmdan chiqqan buyuk siymolari haqidagi dramatik dostonlari („Pahlavon Mahmud", „Beruniy" dramalarining yaratilishi, mazmun-mohiyati).
11	Shavkat Rahmon ijodining qirralari (Adib ijodining O.Sharafiddinov, Safo Ochil, Q.Yo'ldoshev, I.G'aniyev va boshqa adabiyotshunoslar tadqiqi asosida yoritilishi).	Usmon Azim she'riyati (Shoir lirikasining janriy tarkibi va o`ziga xos xususiyatlari, she'riy to'plamlari).	Shavkat Rahmon ijodida badiiy tarjimalar (Shoirning tarjimachilikda erishgan yutuqlari, Ispan shoiri Lorko, X.R.Ximens, R.Alberti she'rlarining tarjimalari,).	Usmon Azim ijodi haqida fikr-mulohazalar (Adabiyotshunos olimlar talqinida tanqidiy va muzokaraviy qarashlar).	Shavkat Rahmon she'riyatining pafosi (Yevropa she'riyatining ta'siri-M.Y.Lermontovga xos isyonkorlik, S.Yesenin ruhidagi otashnafaslik, Lorkaga xos ozodlikka tashnalik, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir she'riyatidagi otashin millatparvarlik pafosi).
12	Erkin A'zam so'zni his qilgan, uning tarjimai holini biladigan ijodkor (Adibning shaxsiyati, adabiyotga kirib kelishi, ijodining o'ziga xosligi).	E.A'zam hikoyalarida davr va inson muammosi (Adib hikoyalarining o'ziga xosligi,"Anoyining jaydari olmasi", "Piyoda", "Bog'bololik Ko'kaldosh", "Vatanparvar" kabi hikoyalari bilan tilga tushishi	Erkin A'zamning qissanavislik mahorati ("Otoyining tug'ilgan yili", "Javob", "Bayramdan boshqa kunlar", "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpaklar mamlakati" qissalari, ularning mazmun-mohiyati, kiritgan yangiliklari).	"Navoiyni o'qigan bolalar" hikoyasida ma'naviy aynishlar, fojia va inqirozlarning boshlang'ich nuqtasi tasvirlanishi (Erkin A'zam hikoyasining yaratilishi, asosiy mazmun-mohiyati, Sh.Xolmirzayev e'tirofi).	Erkin A'zamga qaysi adiblar ijodiy ta'sir ko'rsatgan? (Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, OdilYoqubov bilan birga qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov, rus yozuvchisi Valentin Rasputin, ozarboyjon adibi Anor va armani Grant Matevosyan kabi yozuvchilarning ijodiy ta'siri)
12	Xurshid Do'stmuhammadning hayot yo'li va ilk ijodining boshlanishi (Biografiyasi, ilk ijodiy faoliyati, birinchi qissasi «Nigoh» va «Hovli etagidagi uy» nomli birinchi kitobining yaratilishi).	Xurshid Do'stmuhammadga ulkan muvaffaqiyat keltirgan asari («Bozor» (2000) romanining g'oyaviy tahlili, roman orqali o'zbek adabiyotiga yangi yo'nalishni olib kirishi).	Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalari tahlili («Panoh», «Oromkursi», «So'roq», «Sof o'zbekcha qotillik», «Mahzuna», «Ibn Mug'anniy», «Yolg'izim - Siz», «Ko'z qorachig'idagi uy», «Jajman» asarlari, «Hijronim mingdir mening», "Qissalar" qissa va hikoyalar to'plami tahlili, mavzu-mundarijasi).	Xurshid Do'stmuhammadning jurnalistik faoliyati (Adibning qatag'on qurbonlaridan birining fojiali taqdiriga bag'ishlangan «Hamid A'lamovning qotillik», «Mahzuna», «Ibn Mug'anniy», «Yolg'izim - Siz», «Ko'z qorachig'idagi uy», «Jajman» asarlari, «Hijronim mingdir mening», "Qissalar" qissa va hikoyalar to'plami tahlili, mavzu-mundarijasi).	Xurshid Do'stmuhammad ijodi haqida tanqidchi adabiyotshunoslarning fikr-mulohazalari (Jurnalistik faoliyati, esse va maqolalari, badiiy asarlariga berilgan baho va ba'zi tanqidiy qarashlar).
13	X.Sultonov – nasrda yozuvchi Asqad Muxtor asos solgan ijodiy martabning vakili.	X.Sultonovning nasriy asarlari (Adibning nasrda erishgan yutuqlari, „Quyosh barchaga barobar, „Bir oqshom ertagi", "Onamning yurti", „Umr esa o`tmoqda", "Boburning tushlari" „Yo`qchilik va to`qchilik" , „Boburiynoma" singari hikoya, qissa va romanlari).	Xayriddin Sultonovning ssenariychi sifatidagi ijodi ("Changak". "Moziydan bir sahifa kabi telefilmlar hamda ,Tushlarimda ko'rib yig'layman, „Yolg'iz yodgor" singari badiy filmlari).	Xayriddin Sultonovning badiiy tarjimalari (Adibning dunyo adabiyotining eng sara asarlarini o`zbekchaga tarjima qilishi, Y. Nagibin, V. Shukshin singari rus yozuvchilari ijodidan qilgan tarjimalari).	Xayriddin Sultonovning o'zbek adabiyoti rivojiga qo`shgan hissasi (X.Sultonov o`zining ,,Saodat sohili", „Yozning yolg`iz yodgori", ",Ko`ngil ozodadur, „Ajoyib kunlarning birida" singari qissalari).
13	Nazar Eshonqul - XXI asr o'zbek modernistikasiga katta hissa qo'shgan serqirra ijodkorlardan biri (Adibning hayot yo'li, ijodiy faoliyatining boshlanishi, ijodida yangicha yo'sin va ifoda usuli).	"Maymun yetaklagan odam" hikoyasida yangicha yo'sin va ifoda (Hikoyaning yaratilishi, go'yaviy mazmuni, yangicha yondashuv).	Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy ifoda va obrazlar talqini (Ilk asari – "Urush odamlari" qissasi, "Ufq ortidagi quyosh", "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo`lmaydi", "Momoqo`shiq", "Yalpiz hidi", "Shaftoli guli" nomli kitoblari)	"Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida qasoskor ayol obrazining ifodalanishi (Hikoyaning yaratilishi, g'oyaviy tahlili, obrazlar talqini).	Nazar Eshonqul ijodi adabiyotshunoslar tadqiqida (Adibning o'zbek adabiyotida modernizm yo'nalishiga xos ijodining tadqiq etilishi).
14	Ulug'bek Hamdam - yozuvchi, tarjimon (Adibning hayot yo'li, ilmiy va ijodiy faoliyati).	Ulug`bek Hamdam she'riyati (Adibning ilk she'riy to'plami "Tangriga eltuvchi isyon», «Atirgul» to'plamlari nashr etilishi, to'plamlarga kirgan she'rlarda modernizm yo'nalishi ustuvorligi.	Ulug`bek Hamdamning nasriy asarlari: mavzu va janr xususiyati („Yolg`izlik", „Muvozanat", „Isyon va itoat", „Sabo va Samandar", „Uzoqdagi Dilnura", „Ota", "Bizdan rozi bo'ling ota", "Yaxshiyam sen borsan", "To`rt ko`cha" asarlarining yaratilishi, mavzu va g'oyasining xilma-xilligi).	Ulug'bek Hamdamning ilmiy asarlari („Badiiy tafakkur tadriji", „Yangilanish ehtiyoji", „Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm"kabi tadqiqotlari).	Ulug`bek Hamdam tarjimalari (Jaloliddin Rumiyning „Ichindagi ichindadir", Usmon Turonning „Turkiy xalqlar mafkurasi" nomli asarlarini turk tilidan o`zbek tiliga tarjima etilishi
14	Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida Mirzo Kenjabek ijodi (Shoirning hayot yo'li, ijodiy faoliyatining boshlanishi, birinchi she'riy to'plami "Adashgan maktublarim", o'zbek she'riyatiga qo'shgan hissasi).	Mirzo Kenjabek she'riyatida ozodlik g'oyasi (Shoirning "Dildoshlik", "Til erki - el erki", "Xalq nomidan yolg'on so`zlamang", "Yuragimda oyoq izi bor", "Fitna san'ati" kabi she'rlarida ozodlik g'oyasining ifodalanishi,).	Mirzo Kenjabekning badiiy tarjimalari (Pushkinning "Yevgeniy Onegin" romani, Hofiz Sheroziy, Shayh Sa'diy Sheroziy g'azallari, Nikolas Gilen (Kuba), Gevorg Yemin (Armaniston), Yakub Kolas (Belorussiya), Sherali Loyiq (Tojikiston), O'ljas Sulaymon (Qozog'iston) kabi mumtoz shoirlarning she'rlari tarjimasi).	Mirzo Kenjabekning jurnalistik faoliyati ("Asl Vatan qayg'usi", "Navoiy nazmida hadis va hikmat", "Poklik ishtiyoqi" kabi ma'rifiy maqolalari).	Mirzo Kenjabekning shoir, tarjimon, jurnalist sifatidagi ijodiy faoliyatida erishgan yutuqlari (Davlat mukofotlari, o'zbek adabiyotida samarali iz qoldirishi, bebaho tarjimalari).
15	Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti (O'zbek adabiyotida yangi yo'nalish va oqimlarning kirib kelishi, modernizm yo'nalishi namunalarining yaratilishi, janriy xususiyatlar).	O'zbek modern adabiyotida milliylik va haqchillik (Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotiga modernizm yo'nalishining kirib kelishi, Nazar Eshonqul, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Omon Muxtor ijodining nogohoniylik, modernizm unsurlariga boyligi).	Milliy istiqlol davri o'zbek adabiyotida zamonaviy mavzu bilan birga tarixiy muammolarning yoritilishi, uzoq va yaqin o'tmish manzaralarining gavdalantirilishi (A.Oripovning "Sohibqiron" dramasi, Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetrologiyasi).	Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi (Yangi yo'nalish va metodlar, modernizm, sintetik realizm, neorealizm yo'nalishlarining kirib kelishi, ilk namunalar).	O'zbek adabiyotida yaratilgan sintetik realizm namunalari (Murod Muhammad Do'st "Lolazor", O.Yoqubovning "Adolat manzili", "Osiy banda", U.Nazarovning "Chayon yili", A.Nurmurodovning "Qon hidi" asarlari).
15	Modern adabiyotining o'ziga xos xususiyati (Modern adabiyoti tushunchasi, g'arb adabiyotiga xosligi, Jems Joys, Marsel Prust, Frans Kafka ijodiy faoliyatida dunyoga kelishi).	Milliy istiqlol davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos jihatlari (Realizm an'analariga modernizm unsurlarining chatishtirilishi, ilk namunalar, Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romani).	Hozirgi o'zbek she'riyatining janriy xususiyatlari (O'zbek she'riyatida modernistik tajribalar, simvolizm namunalari Faxriyorning "Geometrik bahor", B.Ro'zimuhammadning "Soyalar suhbati" to'plamlari).	Mustaqillik davri dramaturgiyasi (Mustaqillik mohiyatini murakkabligi, ziddiyatlarini ochib berishi bilan xarakterlanishi, namunalar O.Yoqubovning "Bir koshona sirlari" dramasi).	O'zbek adabiyotida shakllanayotgan yangi metod - neorealizm yo'nalishi namunalari (Neorealizm yo'nalishi xususiyatlari,yaratilgan ilk namunalar, Louqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asarlari).